



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 291 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati.....	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili.....	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxлари strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xoriy tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqulovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinovna	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich	



IQTISODIY BILIMLARNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Po'latov Abdulloh Xolxo'jayevich

abdullox022287@gmail.com

ORCID:0009-0007-6146-0931

NamDTU "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy bilimlarning mazmuni va uning tarkibiy elementlari yoritilgan. Turli iqtisodiy tizimlarda iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanish jihatlari, shuningdek, ularning rivojlanishida kuzatilayotgan ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan. Iqtisodiy bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan tegishli tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy nazariya, yondashuv, moddiy boyliklar, boyliklarni yaratish, taqsimlash, iste'mol qilish, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy rivojlanishi, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy madaniyat, ustuvor ishlab chiqarish omili.

Abstract: This article examines the content and structural components of economic knowledge. It highlights the aspects of formation and development of economic knowledge in various economic systems, as well as certain problems encountered in the process of its advancement. Relevant recommendations for the enhancement of economic knowledge are provided.

Key words: economic theory, approach, material wealth, wealth creation, distribution, consumption, social development of society, economic development, political development, economic consciousness, economic thinking, economic culture, priority production factor.

Аннотация: В статье раскрываются содержание экономических знаний и их составные элементы. Освещены аспекты формирования и развития экономических знаний в различных экономических системах, а также обозначены отдельные проблемы, возникающие в процессе их развития. Представлены соответствующие рекомендации по совершенствованию экономических знаний.

Ключевые слова: экономическая теория, подход, материальные блага, создание богатства, распределение, потребление, социальное развитие общества, экономическое развитие, политическое развитие, экономическое сознание, экономическое мышление, экономическая культура, приоритетный фактор производства.

KIRISH

Insoniyat mavjud bo'lgan jamiyat hamda insonning ushbu jamiyatda yashashiga sabab bo'luvchi turli hodisa va jarayonlar, jumladan, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlariga e'tibor qaratish va ularning tub mohiyatini anglash muhimdir. Jamiyatning ushbu tomonlari iqtisodiy fanlar vositasida iqtisodiy bilimlar orqali o'rganiladi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning umumiy va xususiy qonuniyatlarini bilish, hodisa va jarayonlarni nazariy hamda amaliy jihatdan tizimlashtirish, inson uchun zarur hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish – iqtisodiy fanlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiy bilimlar iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Bu bizga mazkur tizimlar faoliyatining mexanizmlarini tushunish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyotining yangi sifat bosqichiga o'tishi nazariy bilimlar ahamiyatining ortishi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar rolining kuchayishi, xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borishi (ya'ni, tarkibiy o'zgarishlar), shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (xususan, Internet) ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. Bunday tendensiyalar zamonaviy iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari (postindustrial jamiyat nazariyalari, "yangi" iqtisodiyot, global tarmoq iqtisodiyoti, axborot iqtisodiyoti) hamda bilimlar iqtisodiyoti nazariyasining o'z o'rnini aniqlash zaruratidan kelib chiqqan holda alohida ilmiy o'rganishni talab qiladi.

Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlarni mikro va makro darajada nazariy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, iqtisodiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi, shuningdek, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Iqtisodiy bilimlar – bu iqtisodiyotning fan sifatidagi mazmuni, iqtisodiy faoliyat tamoyillari, iqtisodiy tizimlar va jarayonlar, shuningdek, iqtisodiy modellar va nazariyalar haqidagi bilimlar majmuasidir. Boshqacha aytganda,



bu bilimlar iqtisodiyotning turli darajalarda – uy xo'jaligidan tortib global iqtisodiyotgacha – qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

Iqtisodiy nazariya va yondashuvlarning mazmun-mohiyati jamiyatning moddiy boyliklarni yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlariga doir iqtisodiy qarashlari, fikrlash uslubi orqali ochib beriladi. Bu fikrlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish bosqichlariga xos tafakkur orqali ifodalanadi.

Iqtisodiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish muammolari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular mikro, mezo va makroiqtisodiy darajadagi iqtisodiy tizim faoliyatining turli jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur masalalar ko'plab ilmiy maktab va yo'nalishlar doirasida yetakchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, L.I. Abalkina, A.V. Buzgalin, A.I. Dobrynina, A.A. Dynkin, S.A. Dyatlov, D.S. Lvov, V.L. Makarov, B.Z. Milner, G.B. Polyak, T.Ye. Stepanov, Yu.Ye. Xoxlov, D. Bell, J. Galbraith, G. Khan, J. Kornai, E. Toffler, T. Stewart, T. Umesao va D. Schneider kabilarni misol keltirish mumkin.

Iqtisodiy bilimlarning shakllanishi fan sifatida fransuz iqtisodchisi Antuan de Monkretyen (1575–1621) tomonidan yozilgan "Siyosiy iqtisod risolasi" nomli asarning 1621-yilda nashr qilinishi bilan bog'lanadi. Bu davr iqtisodiy faoliyat hodisalarini kuzatish va tavsiflashdan jamiyatning iqtisodiy hayoti haqidagi g'oyalarni shakllantirish bosqichiga o'tgan davr sifatida e'tirof etiladi.

G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan "Ekonomiks" darsliklarida iqtisodiy bilimlar quyidagicha izohlanadi: "Iqtisodiy bilimlar – bu kishilarning moddiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirish maqsadida cheklangan resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy xulq-atvorni tahlil qilish hamda uni tushunishga qaratilgan bilimlardir". Rossiya Federatsiyasida chop etilgan adabiyotlarda ham ushbu mazmunga yaqin ta'riflar berilgan.

Iqtisodiy bilimlarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishi bilan birga, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning mazmuni kengayib, yangi tushuncha va kategoriyalar shakllanmoqda. Bu esa zamonaviy iqtisodiy tafakkur va ong rivojiga asos bo'layapti.

Iqtisodiy tushunchalarni takomillashtirish – bu shaxsiy xususiyatlar va iqtisodiy fazilatlarini (ishchanlik, mas'uliyat, tejamkorlik) shakllantiruvchi murakkab pedagogik jarayondir. Bu jarayonda iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy ong, qadriyatlar, qobiliyat, ehtiyoj, motiv, odatlar, kompetensiyalar va iqtisodiy bilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy bilimlarni egallash – xo'jalik yuritish mexanizmidagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarini, iqtisodiyotning samarali tashkiliy shakllarini anglash orqali talabalarda iqtisodiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy bilimlar asosida – jamiyat va shaxs ehtiyojlarini qondirish darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunadigan iqtisodiy ong shakllanadi. Jamiyat iqtisodiy jihatdan rivojlangani sari, u bilan bir qatorda siyosat, san'at, adabiyot, fan, ma'rifat, madaniyat va ta'lim sohaları ham uyg'un holda taraqqiy etadi [5].

Iqtisodiy ong tarkibiga iqtisodiy tushuncha va g'oyalarni, nazariyalarni amaliyot bilan taqqoslash, iqtisodiy holatlarni tahlil qilish qobiliyati – ya'ni iqtisodiy tafakkur kiradi.

Iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish quyidagi jihatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim: haqiqiy xo'jayinlik, mulkdorlik tuyg'usi, qarorlar oqibatini oldindan ko'ra olish, mehnat va uning natijalariga bo'lgan iqtisodiy asoslangan munosabat, soliq to'lashdagi huquq va majburiyatni tushunish, daromadni oshirishga intilish, turli iqtisodiy shakllarda faol ishtirok etishga tayyorgarlik, inqirozli vaziyatlarda iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tish, jamiyat manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy himoya mexanizmlari orqali ta'minlash qobiliyati va boshqalar [2].

Turli iqtisodiy munosabatlarda o'zlashtirilgan bilimlar, mehnat va hayotga tadbiiq qilinganida, shaxsiy iqtisodiy madaniyat shakllanadi. Bu borada J. Xasanboev iqtisodiy madaniyatni quyidagicha ta'riflaydi: "Iqtisodiy madaniyat – bu madaniyatning bir qismi bo'lib, u iqtisodiy layoqatligini namoyon etadi: zamonaviy iqtisodiyot, ishbilarmonlik faoliyati asoslari, tadbirkorlik tushunchalari va boshqalar haqidagi tasavvurlarni egallashdir" [4].

Muallifning fikricha, iqtisodiy ta'lim mezonlari – iqtisodiy qonunlarni bilish va tushunish, jamiyat iqtisodiy hayotida ushbu qonunlarga asoslangan rivojlanishni idrok etish, o'zini ongli ishlab chiqarish kuchi sifatida anglash orqali namoyon bo'ladi. Bu esa shaxsning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulq madaniyati darajasini belgilaydi.

Xasanboev, shuningdek, iqtisodiy ta'limning asosiy maqsadi – iqtisodiy faoliyat subyektlari bo'lmish o'quvchilar (talabalar)ning hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlarini shakllantirish, iqtisodiy madaniyat va xulq-atvor me'yorlarini egallashi, ishlab chiqarish omillaridan foydalanishda tejamkorlikni rivojlantirish ekanini ta'kidlaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy bilimlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy elementlar va ularning mazmun-mohiyati yoritildi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanish mazmuni chuqur tahlil qilindi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kuzatuv, tizimli yondashuv va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarda ko'pincha iqtisodiy ta'limning iqtisodiy o'sishga ta'siri, innovatsion rivojlanishda bilimlarning roli yoki axborot texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri o'rganiladi.


Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish hamda zamonaviy mutaxassislarni ishbiarmon, tejamkor va har bir sohada tadbirkor bo'la oladigan shaxslar sifatida shakllantirish uchun mamlakatimizda zarur sharoitlar yaratilmoqda. Talabalarda tadbirkorlik sohasiga oid zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali – kelajakda aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish yo'lida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda yoshlarning aql-zakovati va mehnati asosiy kuch bo'lishi mumkin. Buning uchun eng avvalo iqtisodiy bilimlarni mukammal egallagan, tashabbuskor va g'ayratli yoshlar zarur.

Iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning rivojlanishi jamiyat hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yangi bosqichga olib chiqib, iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga turtki beradi. Bu holat sivilizatsiyaning bir ijtimoiy tizimdan boshqasiga o'tishida muhim omil hisoblanadi. Masalan, doindustrial tizimdan industriallashuvga, undan esa postindustrial bosqichga o'tish.

Doindustrial tizim asosan agrar xo'jalikka va qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, qishloq xo'jaligi bandlikning ustuvor sohasi hisoblanadi. Industriallashgan tizim esa ishlab chiqarish davri bo'lib, uning tuzilmasida zavod, fabrikalar, korporatsiyalar, firmalar yetakchi o'rin tutadi. Postindustrial tizim nazariy bilimlarning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yirik ishlab chiqarish va jamg'armalar o'rnini oliy ta'lim muassasalari, universitetlar egallaydi.

Postindustriallashtirish insoniyat jamiyatining industrial bosqichdan axborot texnologiyalari hukmron bo'lgan bosqichga o'tishidir. Rivojlangan davlatlar ushbu jarayonni yakunlab, axborot asriga qadam qo'ygan bo'lsa, ba'zi kam rivojlangan davlatlar, jumladan, Afrika mamlakatlarining katta qismi hali agrar bosqichda qolmoqda. Postindustrial jamiyat – bu innovatsion xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo'lgan, unumdor ishlab chiqarishga asoslangan jamiyatdir.

Bunday jamiyatda iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida kuchli raqobat mavjud bo'ladi. Postindustrial bosqichga o'tgan iqtisodiyot – bu ilmiy-texnik inqilob, aholining real daromadlarining o'sishi va tovarlar ishlab chiqarishdan xizmatlar ishlab chiqarishga o'tish orqali tavsiflanadi [6]. Ishlab chiqarishning asosiy resursi bu – axborot [7] va bilimdir. Ilmiy ishlanmalar esa iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ta'lim darajasi, kasbiy malaka, xodimlarning bilim darajasi va kreativligi [8] qimmatli sifatlar sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi



Ustuvor ishlab chiqarish omili va iqtisodiyot shakllari quyidagicha tasniflanadi:

Sanoatdan oldingi (an'anaviy yoki agrar) bosqich: ishlab chiqarishning asosiy omillari – tabiiy resurslar va qo'l mehnati, iqtisodiyotning ustuvor sohasi – qishloq xo'jaligi.

Industrial bosqich: asosiy omillar – kapital, tadbirkorlik qobiliyati, mashina mehnati; ustuvor soha – sanoat.

Postindustrial bosqich: axborot ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanadi; aholining asosiy bandlik sohasi – xizmat ko'rsatish. Ushbu bosqich innovatsion iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining YIMdagi ulushi yuqori bo'lib, inson kapitali va ta'lim sektoriga katta e'tibor qaratiladi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot xarajatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ushbu uch tizim o'rtasidagi asosiy farq – jamiyatga yangi bilimlarning olib kirilayotgan qiymatidadir. Innovatsion iqtisodiyotda bilimlar innovatsiyalar yaratish uchun zarur shart bo'lsa-da, bosh harakatlantiruvchi kuch – yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish, texnologiyalarni sotish va almashinish hisoblanadi. Bilimlar iqtisodiyotida esa bilimlar o'zi mustaqil tovar sifatida shakllanadi, intellektual kapital asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanadi. Bu sharoitda aholining ustuvor bandligi ilmiy izlanishlar va bilimlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarda to'planadi [3].

Iqtisodiyot bilim sohasi sifatida jamiyatda iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar majmuasini o'rganadi. Har bir mamlakat iqtisodiyoti – o'z fuqarolari farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Shunday qilib, iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish mohiyatan shuni anglatadiki, bunda asosiy rol texnologiyaga emas, balki insonga tegishli. Aynan inson – yangi bilimlar yaratuvchisidir. Bu esa o'z navbatida innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi. Iqtisodiyotning ushbu shakliga o'tish mamlakatimiz taraqqiyot darajasining yuksalishi, inson kapitali sifatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifatini yaxshilash va bilim ishlab chiqarishga e'tiborning kuchayganini anglatadi.

Bilimlar rivojlanish darajasini baholash imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish darajasi, ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni, YIMdagi ilmiy-tadqiqot xarajatlarning ulushi, ushbu xarajatlarning tarmoqlar bo'yicha dinamikasi (davlat, xususiy, xorijiy), shuningdek, davlat byudjetining ilmiy izlanishlarga yo'naltirilgan qismi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy bilimlar – kundalik hayotda ongli qarorlar qabul qilish, byudjetni rejalashtirish, investitsiya kiritish, tovar va xizmatlarni tanlash, iqtisodiy jarayonlar va yangiliklarni anglash, mavjud iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish, siyosiy bahslarda ishtirok etish hamda professional faoliyatda iqtisodiy tahlil, moliyaviy tashkilotlarda ishlash, marketing va boshqa sohalarda samarali ishtirok etishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish kabi strategik yo'nalishlarda ham iqtisodiy bilimlarning ahamiyati beqiyosdir.

Iqtisodiy bilimlarni samarali rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Ilmtalab texnologiyalar va axborot texnologiyalari ahamiyatining ortib borayotganini inobatga olgan holda, iqtisodiy bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularni amaliyot bilan bog'lash va iqtisodiy bilimlar almashinuvini jadallashtirishga e'tibor kuchaytirilishi lozim.

Yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish bilan bog'liq ilmiy yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va moliyalashtirish darajasini oshirish muhimdir.

Inson kapitalini boshqarishning zamonaviy usullari va boshqaruv texnologiyalaridan keng foydalanish zarur.

Rivojlanishga tanqidiy va muhokamaviy yondashuvlarni joriy etish, iqtisodiy fikrlarning ochiqqligini ta'minlash, innovatsion qarashlarni rivojlantirish tavsiya etiladi.

Zamonaviy iqtisodiy ilmiy yo'nalishlarni takomillashtirishda uzluksizlikni ta'minlash, mavjud iqtisodiy voqelik talablariga mos keladigan va yangi ehtiyojlarga javob beradigan ilmiy yondashuvlarni doimiy ravishda ilgari surish zarur.

Shu bilan birga, iqtisodiy bilimlarni chuqurlashtirish orqali nafaqat shaxsiy farovonlik, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy mustahkamligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аменд А.Ф. Экономическое воспитание учащихся / Ю.К. Васильев, Б.З. Вульф. – М., ВЛАДОС, 2014. – 344 с.
2. Организация экономического образования и воспитания учащихся / Александр Шпак. – Киев, 2007. – 420 с.
3. Солдатенкова И. Экономика знаний. https://www.banki.ru/wikibank/ekonomika_znaniy/
4. Хасанбоев Ж., То'raqulov X., Xaydarov M.E., Hasanboeva O.U. Pedagogika fanidan izohli lug'at. O'zR Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. T., 2008. – 67–68-bet.



5. Hasanxonova N.I. Iqtisodiy tafakkurning tarkibiy qismlari uyg'unligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy, 2014, 2-son. – 14-bet.
6. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/4939>
7. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/5893>
8. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/84800>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
